

• ANIQ VA TABIIY FANLAR

Джурбаев Д.Р., Шарипов М.З., Хайитов Д.Э. Магнитооптические свойства феррита-граната $Tb_{0.2}Y_{2.8}Fe_{0.12}$ вблизи температуры спинпереориентационного фазового перехода.....	2
Умаров С.Х., Халлоков Ф.К. Стационарные характеристики фотопроводимости монокристаллов $TlInS_2$	6
Гулямов Г., Эркабоев У.И., Шарибаев Н.Ю., Мирзакаримов М.М., Узоков Ф.Г., Мирзаев Ж.И. Моделирование температурной зависимости осцилляций Шубникова-де ГаАза в полупроводниках.....	11
Рахимов У.Х., Собиров Ш.А. Исследование влияния высокотемпературной обработки на электрофизические свойства и параметры эпитаксиальных структур на основе GaaS.....	17
Дурдиев У.Д. Задача определения ядер из двумерной системы интегро-дифференциальных уравнений Максвелла.....	21
Рахмонов К.С., Исабаев И.Б., Атамуратова Т.И. Использование кормовых мучек в качестве субстрата питательной среды пшеничных заквасок в производстве хлеба.....	27
Жураев Ф.М. Задача типа геллерстедта для вырождающегося нагруженного уравнения параболо-гиперболического типа.....	33
Narziyev U.Z., Rajabov B.H. Dasturlanuvchi mantiqiy integral sxema imkoniyatlarini boshqarish.....	40
Jalolova P.M., Abdulazizov B.T. Innovatsion texnologiyalar vositasida atom orbitalarini modellashtirish.....	44
Атауллаев Ш.Н., Фозилов С.Ф., Мавлонов Ш.Б., Фозилов Х.С. Исследование процесса деструктивной гидрогенизации деасфальтизата тяжелых нефтей в присутствии никель-молибденовых катализаторов.....	48
Doniyorov B.N. Vitamirlarning inson hayotidagi roli.....	53
Шамсиев Н.А., Атоева Р.О., Кенжаев О.Қ. Қорамол катта қорнидаги ҳазм жараёнига мис ва унинг катион табиатли антогонистларининг яққа ва қўш таъсири.....	57
• TILSHUNOSLIK	
Бушуй Т.А. Возникновение языкового множества.....	62
Pardayeva Z.J., Murtazayeva F.R. Применение инновационных технологий на занятиях литературы.....	66
Назарова С.А. Сўз бирикмаларининг вазифаси ва янги атов бирикмалари.....	70
Бабакулов И.Т. Об изучении систем слово-образовательных категорий (СК) имен существительных русского и узбекского языков.....	73
Мўминова А.А. Модаллик ва ундаш категорияси: ундаш категориясининг лингвистик мақоми.....	77
Одилова Г.К. Ўзбек, рус, инглиз гастрoномик олам миллий манзарасида "Нон" глуттонимининг ўрни.....	82
Маджидова Р.У. Социолнгвистический анализ фразеологических единиц.....	86
Абдурахманов Ф.И. Дистрибутивный метод в изучении лексико-семантических групп глаголов.....	90
Raxmatova M.M. Injilda "go'zalik" tushunchasi talqini.....	93
Ботирова А.Э. Сўз туркумларининг бирламчи ва иккиламчи вазифалари.....	97
Попов Д.В. Спорные вопросы периодизации русского литературного языка.....	102
G'ulomova Sh.Q. Evfemizmining o'rganilish tarixi va tasnifi.....	107
Kadirova N.A. Bichish-tikish hunariga oid o'zbekcha atamalarining inglizcha talqini xususida.....	112
Ортиқова Х.М. Тил – маданият кўзгуси.....	116
Сапарова М.Р. Бадиий таржимада персонажлар нутқини бериш муаммолари.....	119
Турдалиева Д.С. Лисоний имкониятларининг бадиий воқеаланиши.....	125
Хасанова О. Қ. "Дунёнинг ишлари" асари фонопоэтикаси (ўзбек ва немис тилларида).....	129
Ro'ziyeva S.H. O'zbek tilshunosligida modellashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	133
• ADABIYOTSHUNOSLIK	
Ўраева Д.С. А.Қодирий романларида жаҳон романчилиги анъаналарининг акс этиши.....	138
Қувватова Д.Х. Садриддин Айний ва ўзбек насли тараққиёти.....	142
Рўзиева М.Ё. Халқ достонларида оқ, қора, қизил ранглар рамзийлиги ҳақида.....	145
Бердиев Х.Х. «Девону лутотит турк» асаридаги шеърый парчаларда селецизм ҳодисаси.....	149

Тўхсанов Қ.Р. Жалолиддин Румийнинг "Маснавийи маънавий" асарида аёл образи бадиий талқини.....	153
Давронова Ш.Ф. Тарихий воқелик тасвири: ўзбек ва жаҳон адабий анъаналарининг бадиий синтези.....	159
Давронова М.И. Усмон Азим ижодида жанрлар масаласи ва унда услуб бирлиги.....	163
Мажитова С.Ж. Слова, обозначающие части тела, в газелях Джами.....	168
Темирова Дж.Х. Приемы и средства сатирической литературы XX века.....	173
Махмудова Н.С. Хитой адабаси Би Шумин ижодида инсон руҳиятининг ифодаланиши.....	177
Sayidova R.A., Sayidova L.A. She'riy matnda paradigmatic munosabatlar.....	181
• NAVOIY GULSHANI	
Эшонқулов Ҳ.П. Файр нақшидин ҳамул кул бирла пок этти сипеҳр.....	188
• FALSAFA VA HUQUQ	
Абдуллаева Ф.Ш. Ўзбекистон ва БМТ: ҳамкорликнинг барқарор ривожланиш йўлида.....	191
Шоев И.Х. Стратегия действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан – мощный импульс для поступательного движения по пути реформирования и модернизации страны.....	194
Raxmatova M.M. Yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'ri va roli.....	198
Самадова С.С. "Харакатлар стратегияси" ва миллатлараро тотувлик муаммолари.....	204
Turdiyev B.S. Ma'naviy yangilanish: yangi qaror va hayotbaxsh islohotlar strategiyasi.....	208
• TARIXSHUNOSLIK	
Наврозов С., Артиков Х. Вопросы государственного управления Хивинского ханства в востоковедческой литературе конца XIX- начала XX вв (историография проблемы).....	214
Утаева Ф.Х. Мангит ҳукмдорларининг фаолияти ва шахсияти мустиқиллик йилларидаги даврий матбуот талқинида.....	219
Ҳайитов Ж.Ш. XIX аср охири - XX аср бошларида Туркистонда узум янги навларининг тарқалиш тарихи.....	224
• IQTISODIYOT	
Қаҳҳоров О.С. Таълим тизимида иқтисодчи кадрларни тайёрлаш жараёнини самарали бошқаришга оид назарий ёндашувлар.....	230
• PEDAGOGIKA	
Ақбаров А.А. Стратегии аргументации и вежливости для усиления языковой компетенции у студентов категории с1/с2, изучающих английский язык как второй иностранный язык.....	237
Ergashov M.Ya., Ochilova M.K. Umumiy kimyo fanidan moodle tizimida qo'llaniladigan testlar va ulardan foydalanish.....	244
Салимов Ф.М. 7-10 ёшли болалар жисмоний тарбиясида миллий ҳаракатли ўйинлардан фойдаланиш усуллари.....	248
Олимов Л.Я., Остонов Ж.Ш. Эксперт-психолог фаолиятида кифа ва визуал психодиагностиканинг аҳамияти.....	251
Qurbonova O'U. Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar hahri" asarida ta'lim-tarbiya asallari.....	257
Ибрагимов М.Б. Бухоро вилояти футбол мактабининг иш тахлили.....	263
Ибрагимов А.К., Жабборов И.Б. Бошланғич тайёрлов гуруҳларида шугулланувчи спортчиларнинг чаққонлик сифатларини ривожлантиришда ҳаракатли ўйинларнинг ўрни.....	267
• SAN'ATSHUNOSLIK	
Abdullayev Y.Z. Qadimiy va navqiron Buxoro me'morchiligi.....	271
Murodov Sh.K., Tashimov N.E., Mamurova D.I. Simmetriya tekisligiga ega bo'lgan ikki sirtning kesishish chizig'ini yasashning analitik usuli.....	274
Gulova A.A. Buxoro me'morchiligidagi minoralar va minorasimon qurilmalarining o'ziga xos jihatlari.....	278
• QUTLOV	
Эргашов М.Я., Бекова Н.Ж. Собиров Толиб Рўзиевич қутлуг 60 ёшда.....	282
• XOTIRA	
Рашидов Умар Жўраевич.....	284
• E'LON	
"Бухоро давлат университети илмий ахбороти" журналида мақола эълон қилиш талаб ва шартлари.....	285-286

орқали халқимиз турли миллатларга мансуб маданиятлар ҳақида кенгроқ маълумотга эга бўлади.

Айни пайтда миллий-маданий марказларга амалий ҳамда методик ёрдам кўрсатиб, уларнинг ташаббусларини қўллаб-қувватлаб, миллати, ирқи ва диний эътиқодидан қатъий назар фуқаролар онгида кўп миллатли ягона оила туйғусини мустаҳкамлаш “Ўзбекистон - умумий уйимиз” тамойилини амалга ошириш бўйича жойларда турли анжуманлар, учрашувлар, фестиваллар ўтказилмоқда. Ўз навбатида муқаддас заминимизда турли миллат ва элат вакилларининг анъана ва урф-одатларини ривожлантириши, миллий ва диний байрамларни эмин-эркин нишонлаш учун ҳам зарур шарт-шароитлар яратилган. Буларнинг барчаси ўзаро ҳамжиҳатликни янада таъминлашга хизмат қилаёпти.

Ўзбекистонда яшаётган турли миллат ва халқлар вакилларининг, - деб таъкидлайди Президентимиз Шавкат Мирзиёев, - бетакрор маданияти, халқ ҳунармандлиги, анъана ва урф-одатлари билан тизимли ва доимий асосда таништириш бўйича дастур ишлаб чиқиши ва ҳар йили йил давомида уни амалга ошириши айни муддао бўлур эди. Буларнинг барчаси турли халқлар маданиятларининг бир-бирини ўзаро бойитишига, бизнинг кўп миллатли Ўзбекистонимизнинг маънавий ва маданий ҳаётини янада ёрқин намоён этишга хизмат қилади [4].

Бугунги кунда Республикамизда яшаётган барча миллат ва элатлар вакиллари яхлит ҳолда Ўзбекистон халқини ташкил этади. Улар бир-бирлари билан ҳамжиҳат бўлиб, юртимиз равнақи йўлида сидқидилдан меҳнат қилмоқдалар.

Хулоса. 2017-2021 йилларга мўлжалланган “Ҳаракатлар стратегияси”нинг амалга оширилиши Ўзбекистон Республикасининг мамлакатни ислоҳ қилиш ва модернизациялаш, ривожланган бозор иқтисодиётига асосланган ҳуқуқий демократик давлат, кучли фуқаролик жамият барпо этиш, қонун устуворлиги, хавфсизлик ва ҳуқуқ-тартиботни, давлат чегараларининг дахлсизлигини, жамиятда миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш йўлидаги шахдам ҳаракатларга янги куч бағишлайди. Шу маънода мамлакатимизда миллатлараро тотувликни мустаҳкамлаш, маънавий-ахлоқий тарбияни кучайтириш бўйича аниқ мақсадга йўналтирилган чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Бу барча соҳада олиб борилаётган кенг кўламли ислохотлар, юртимизнинг тинчлиги, осойишталиги ва фаровонлигини янада юксалтириш йўлидаги эзгу саъй-ҳаракатларнинг муҳим асоси бўлиб хизмат қилаёпти.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – 75 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқаларини янада такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. Халқ сўзи. 2017 й. 20 май.
3. **Каримов И.А.** Хавфсизлик ва тинчлик учун курашамиз. 10 – жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 432 б.
4. **Мирзиёев Ш.М.** Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.– Т.: Ўзбекистон, 2017. – 591 б.
5. Миллатлараро тотувлик, барқарорлик ва тараққиёт омили. – Т.: Академия, 2005. – 60 б.
6. **Убайдуллаева Р., Бекмуродов М.** Приоритет личностного развития //Правда Востока. – 2004. – 13 февраля.

UDK: 323.232 (575.1) [2017-2021]

MA'NAVİY YANGILANISH: YANGI QAROR VA HAYOTBAXSH ISLOHOTLAR STRATEGIYASI

ДУХОВНОЕ ОБНОВЛЕНИЕ: НОВЫЙ УКАЗ И ЖИВОТВОРНЫЕ РЕФОРМЫ СТРАТЕГИИ

SPIRITUAL RENEWAL: THE NEW DECREE AND THE STRATEGY OF LIFE-INSPIRING REFORMS

Turdiyev Bexruz Sobirovich

BuxDU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi

Tayanch soʻzlar: barqarorlik, maʼnaviy meros, maʼnaviy yangilanish, maʼrifat, strategiya, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, rezolyutsiya, tinchlik, xavfsizlik.

Ключевые слова: стабильность, духовное наследие, духовное обновление, образование, стратегия, сепаратизм, торговля людьми, “массовая культура”, резолюция, мир, безопасность.

Key words: stability, spiritual heritage, spiritual renewal, education, strategy, separatism, human trafficking, “mass culture”, resolution, peace, security.

Ushbu maqola Oʻzbekistonda harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan maʼnaviy-maʼrifiy islohotlar, ularning jamiyat hayotidagi oʻrni hamda Oʻzbekistonning jahon hamjamiyati maʼnaviy yuksalishidagi amaliy takliflari yoritib berilgan.

В данной статье рассматриваются реформы духовно-просветительских процессов, реализуемые в рамках Стратегии действий в Узбекистане, их роль в жизни общества и практические рекомендации Узбекистана по духовному развитию мирового сообщества.

This article is dedicated to the reforms of the spiritual and educational processes implemented within the framework of the strategy of actions in Uzbekistan and their role in the life of society. It also presents practical recommendations of Uzbekistan on the spiritual development of the world community.

Kirish. Davlat mustaqilligini qoʻlga kiritgan Oʻzbekiston uchun iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning, madaniy va maʼnaviy yangilanishning keng istiqbollari ochildi. Bugun jamiyatimiz hayotida maʼnaviyat va maʼrifatni rivojlantirish-davlat siyosatining eng ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida qaralib kelinmoqda. Maʼnaviy yangilanishlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan hayotbaxsh islohotlar strategiyasida samarali natijalarga erishishimizga xizmat qilib kelmoqda. Bu islohotlar strategiyasining dolzarbligi haqida davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: “Jamiyatimizda sogʻlom fikr, sogʻlom kuch ustuvor boʻlishi uchun biz maʼnaviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlarimizni turli zararli taʼsirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam oʻylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur. Bu borada amalga oshirayotgan islohotlarimiz, xususan, maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish, madaniyat va sanʼat tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini munosib qadrlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar sizlarga yaxshi maʼlum, albatta”[1].

Ayniqsa, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida soʻzlagan nutqlarida, butun jahon hamjamiyatini bugun insoniyat maʼnaviyatini yuksaltirish zarurati har doimgidan koʻra dolzarb ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlab oʻtdilar. Davlatimiz rahbari ayni paytda xalqaro terrorizm va ekstremizm kabi jahonga xavf solayotgan global masalalarni kuch ishlatish yoʻli bilan emas, aksincha, yoshlarning ongu tafakkurini maʼrifat asosida shakllantirish va ularni tarbiyalash orqali bartaraf etish lozimligi haqida soʻzlab, sessiya qatnashchilariga BMT Bosh Assambleyasining “Maʼrifat va diniy bagʻrikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifini bildirdilar.

Bugungi kunda kuchli fuqarolik jamiyati poydevorini barpo etishda maʼnaviyat va maʼnaviy yangilanishlar masalasi Oʻzbekiston uchun doimo dolzarbligi inobatga olinib, uni umumdavlat darajasida hal qilishga katta eʼtibor qaratib kelinmoqda. Shuning uchun mamlakatimizda maʼnaviyatga oid davlat siyosati izchillik bilan hayotga tadbqiq etib kelmoqda. Maʼnaviyat sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlari sifatida quyidagi jabhalarda faol saʼy-harakatlar olib borilyapti:

- maʼnaviy merosni tiklash va chuqur oʻrganish;
- Oʻzbekistonning eng yangi tarixini yaratish;
- taʼlim tizimini rivojlantirish;
- fan va texnika taraqqiyotini taʼminlash;
- komil insonni tarbiyalash.

Hozirgi ezgu sa'y-harakat va islohotlarimiz jamiyat hayotini yangilash bilan bir qatorda, uning rivojlanishida misli ko'rilmagan yuksalish yo'lidan borishga undaydi. Shu bois, mustaqil O'zbekistonda ma'naviyatni yuksaltirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni muntazam amalga oshirish jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biriga aylangani bejiz emas. Bu borada so'nggi yillarda ma'naviyatni yuksaltirishga qaratilgan qator qarorlar qabul qilindi, ko'plab tadbirlar amalga oshirilayapti, ta'lim va tarbiya ishlarining yangi konsepsiyasi ishlab chiqildi, eng muhim va ahamiyatlisi — ma'naviyatga munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi ushbu tadqiqotning amaliy ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qildi.

Bu hayotbaxsh islohotlar va ularning shiddati jamiyat ma'naviy hayotining barcha jabhasini qamrab oldi hamda amaliy natijalar ham shunga mos ravishda tez fursatlarda ko'zga tashlanmoqda. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori [2], 2017-yil 14-fevraldagi "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori [3], 2017-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom madaniyati markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori [4], 2017-yil 6-sentabrda Buxorodagi Bahouddin Naqshband majmuasida yangi tashkil etilgan Buxoro Oliy madrasasining ochilish marosimi bo'lib o'tganligi, 2017-yil 10-noyabr kuni Buxoro viloyatida joylashgan Mir Arab oliy madrasasi huzurida Bahouddin Naqshband tasavvuf ilmiy maktabining ochilishi ana shunday ezgu maqsadlarga xizmat qilayotir.

Bu yangilanishlarimiz negizida ezgulik va ma'rifat hamohang. Bunday yangilanishlar qatorida, yurtimizda Moskvaning po'lat va qotishmalar instituti va AQShning esa Vebster universitetining filiallarini tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash "Ilhom" jamoat fondi, shuningdek, madaniyat va san'at muassasalari hamda yirik kompaniya va banklar hamkorligida "Do'stlar klublari" tashkil etildi. Toshkent shahridagi Milliy bog' hududida muhtasham Adiblar xiyobonining davlatimiz rahbarining "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i hududida Adiblar xiyobonini barpo etish to'g'risida"gi qarorlarining [5] qabul qilingani adabiyotimizga, xalqimizga, kelajagimizga e'tiborning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi. Qarorga muvofiq, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ini xalqimiz, avvalambor, yoshlarimizning madaniy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirishga xizmat qiladigan, nafaqat yurtimiz, balki jahonning turli mamlakatlaridan mehmonlar va sayyohlar tashrif buyuradigan har tomonlama go'zal va betakror maskanga aylantirish, ma'naviy hayotimizda o'chmas iz qoldirgan atoqli so'z san'atkorlarining tarixiy xotirasini abadiylashtirish maqsadida bog' hududida Adiblar xiyoboni barpo etilmoqda. Bunday misollarni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Eng muhimi 2017-yil 28-iyuldagi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli qarorning qabul qilinganligini alohida qayd etish lozim [6]. Ushbu qaror ma'naviy-ma'rifiy sohada yangicha tub burilish yasadi desak, adashmagan bo'lamiz.

Ma'naviy hayotimizda muhim voqea bo'lgan ushbu markaz faoliyatining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni alohida ko'rsatib o'tishimiz lozim:

→ mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ'ibot ishlarini tizimli va izchil amalga oshirish, bu borada keng jamoatchilik, olimlar, mutaxassislar, ijodkor ziyolilardan iborat "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyatini shakllantirish hamda uning faoliyatini doimiy asosda yo'lga qo'yish;

→ dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat", narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish;

→ jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

→ milliy g'oyani yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o'rtasida keng targ'ib etish, bunyodkorlik ruhini yalpi ijtimoiy harakatga aylantirish, ertangi kunga ishonch tuyg'ularini kuchaytirish;

→ targ'ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish;

→ ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini samaradorligining ilmiy asoslangan monitoringini ta'minlashga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni muntazam yo'lga qo'yish;

→ yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

→ mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishlash, ushbu toifani ijtimoiy-iqtisodiy faollashtirishda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

→ xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlar va milliy tarbiya an'analarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz o'rtasida dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va joriy etish [7].

Endilikda, markazning oldiga ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining mazmun-mundariyasini tubdan yaxshilash, ularning ko'lami va miqyosini kengaytirish, tizimda faoliyat ko'rsatayotgan soha xodimlarining bilim va malakasini izchil oshirib borish, tuman (shahar) darajasidagi xodimlar mehnatiga haq to'lashning barqaror tizimini yo'lga qo'yish, sohada faoliyat olib borayotgan muassasa va tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish va ularning samarasini oshirish kabi vazifalar qo'yildi. Qarordagi yana bir muhim jihatlaridan biri, bu yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Markaziga asosiy vazifa sifatida yuklatilganligi bo'ldi.

Mazkur qarorda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Markazi va uning hududiy bo'limlariga dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat", narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish, jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar - el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berish qat'iy belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, targ'ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish ta'kidlab o'tilgan. Markazning oldiga ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining mazmun-mundariyasini tubdan yaxshilash, ularning ko'lami va miqyosini kengaytirish, tizimda faoliyat ko'rsatayotgan soha xodimlarining bilim va malakasini izchil oshirib borish, tuman (shahar) darajasidagi xodimlar mehnatiga haq to'lashning barqaror tizimini yo'lga qo'yish, sohada faoliyat olib borayotgan muassasa va tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish va ularning samarasini oshirish kabi vazifalar qo'yildi. Xususan, oila, mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, chekka hududlar va mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo'shilib qolish, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlarining aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bu masalalarga jiddiy e'tiborni talab etmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan yuritilayotgan yangi va pragmatik siyosat asosida ma'naviyat va ma'rifat sohasi xolis va tanqidiy baholanib, oldimizda turgan dolzarb vazifa va amalga oshirilayotgan ishlarga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu haqida Prezident Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvlaridagi ma'ruzalarida quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edilar: "Ma'naviy hayotimizni yanada rivojlantirish maqsadida keyingi paytda bir qancha muhim hujjatlar, jumladan, kitobxonlik madaniyatini oshirish, madaniyat va san'at sohasini takomillashtirish, hududlarda ulug' san'atkorlarimiz nomi bilan ataladigan ijodiy maktab va markazlar tashkil etish to'g'risidagi qaror va farmoyishlar ham qabul qilindi. Bu haqda gapirganda, Toshkent shahrida Adiblar xiyoboni bunyod etilayotgani, u yerda

adabiyotimizning buyuk namoyandalariga bag'ishlab yodgorlik majmualari o'rnatilayotgani, shuningdek, Namangan viloyatida ulkan ma'rifatparvar Ibrat domla, Jizzax shahrida atoqli ijodkorlar Hamid Olimjon, Zulfiya va Sharof Rashidov, Xorazm viloyatida otashnafas hofiz Komiljon Otaniyozov, Nukus shahrida O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Ibroyim Yusupov, Farg'ona, Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf xotiralarini abadiylashtirish ishlari olib borilayotganini qayd etish lozim. Bu ishlarning mantiqiy davomi sifatida yosh shoir va adiblar, aktyor, rassom va qo'shiqchilar, jurnalistlarning iste'dodini yuzaga chiqarish, ularga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish borasida ham qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda"[8].

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirilishi kutilayotgan davlat dasturida ham quyidagi ma'naviy yuksalishga xizmat qiladigan chora-tadbirlarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

→ "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish;

→ Xalq savodxonligini ko'tarish, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida milliy boylik hisoblangan tilning rolini oshirish;

→ Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi siyosiy masalalar, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa sohalarda o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish;

→ Diniy ta'lim tizimni tubdan isloh qilish;

→ Respublika Qur'oni Karim musobaqasini o'tkazish;

→ Birlashgan Millatlar Tashkiloti va xorijiy hamkorlar bilan birgalikda BMTning Yoshlar huquqlari bo'yicha konvensiyasi loyihasini ishlab chiqish;

→ BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi loyihasini ishlab chiqish;

→ Xorijdagi hamyurtlar bilan o'zaro hamkorlik sohasida davlat siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish;

→ Axborot resurslari va internet tarmoqlari orqali tarqatilayotgan ekstremizm va terrorizm g'oyalarining mamlakatimiz hududida targ'ib qilinishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash;

→ BMT Bosh Assambleyasining "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, xavfsizlik va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga doir" rezolyutsiyasi loyihasini ishlab chiqish [9].

→ O'zbekiston jamiyati taraqqiyotida ma'naviy yangilanishlarni izchil davom ettirishda quyidagi bir necha taklif va tavsiyalar keltirishimiz mumkin:

→ jamiyat taraqqiyotida ma'naviy yangilanishlarning muhim rol o'ynayotganligi va uning mustaqilligimizni mustahkamlashdagi ahamiyati xususida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish;

→ shaxs va jamiyat hayotida ma'naviy yangilanishlarning o'rni mavzusida ilmiy-falsafiy maqolalar ko'rik tanlovini e'lon qilish;

→ ma'naviy yangilanish milliy taraqqiyotning tarkibiy qismi sifatida millatning, xalqning tarixiy-madaniy, ijtimoiy-axloqiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini anglab yetishi uchun demokratik islohotlarni chuqurlashtirish;

→ jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy yangilanishlar jarayonini falsafiy tadqiqotlar doirasida o'rganish va shu asosda milliy g'oyani targ'ib etishga yo'naltirilgan, ma'naviy-tarbiyaviy ishlar saviyasini oshirib borish;

→ jamiyat taraqqiyotida ma'naviy yangilanishlarning ahamiyatini mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar mazmuni bilan bog'liq bo'lgan teleko'rsatuv va eshittirishlarda yanada keng yoritishni yo'lga qo'yish.

Xulosa. Muxtasar qilib aytganda, har bir tarixiy davrdagi ma'naviy yuksalish jamiyatga ham, inson faoliyatiga ham ta'sir etadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog'ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha- necha azoblar va qiyinchilik bilan ma'naviyat chashmasini izlaydi"[10]. Zero, ma'naviyatni yangilash, boyitish – milliy mustaqillikni mustahkamlashning muhim shartidir. Shu bois, harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, avvalo, Vatanimiz mustaqilligi, uning ma'naviy asoslarini avaylab-

asrash, aholimiz, ayniqsa yosh avlodning ongida milliy-ma'naviy qadriyat, an'analarimizga sodiqlik ruhida tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, —Biz barchamiz – fuqarolar ham, jamiyat ham, davlat ham Vatanimiz ravnaqi uchun, mamlakatimizda tinchlik-barqarorlikni mustahkamlash uchun, tarixiy, ma'naviy va madaniy merosimizni saqlash, boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish uchun birdek mas'ulmiz!![11].

ADABIYOTLAR

- 1.O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.// Xalq so'zi, 2017-yil, 31-avgust.
2. —Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risidallgi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. //Xalq so'zi, 2017-yil 14-sentabr.
3. —Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidall gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. //Xalq so'zi, 2017-yil 15-fevral.
4. —O zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O zbekistondagi Islom madaniyati markazi faoliyatini tashkil etish to g risidallgi O zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasin- ing qarori, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 31-son.
5. —Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy bog'i hududida adiblar xiyobonini barpo etish to'g'risidallgi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. // Xalq so'zi, 2017-yil 19-aprel.
6. —Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqich- ga ko tarish to g risidallgi O zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, № PQ-3160, 28-iyul 2017-yil, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.09.2017 y., 06/17/5194/0032-son).
7. —Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqich- ga ko tarish to g risidallgi O zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, № PQ-3160, 28-iyul 2017- yil, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.09.2017 y., 06/17/5194/0032-son).
8. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O zbekiston ijodkor ziyolilari vakil- lari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 4-avgust, 2017-yil.
9. 2017-2021-yillarda O zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo nalishi bo yicha harakatlar strategiyasini —Faol tadbirkorlik, innovatsion g oyalar va texnologiyalarni qo llab-quvvatlash yililda amalga oshirishga oid davlat dasturi to g risida O zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018 y., 06/18/5308/0610-son.
10. Karimov I.A. O zbekiston: milliy istiqlo, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: O zbekiston, 1993. – 78 b.
11. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi 7-dekabr, 2017- yil.
12. Turdiyev B. S. The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal //Scientific Bulletin of Namangan State University. - 2019. - T. 1. - №. 6. - C. 229-233.
13. Sobirovich T. B. Strategy of Renewal of National Spirituality of Uzbekistan //International Journal on Integrated Education. - 2020. - T. 3. - №. 8. - C. 122-126.
14. Sobirovich T. B., Murodogli I. S. The strategy for the implementation of the modern gover- nance system in Uzbekistan //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Jour- nal. - 2020. - T. 10. - №. 5. - C. 741-748.
15. Sobirovich T. B. Strategy of spiritual renewal in Uzbekistan //International Journal of Psy- chosocial Rehabilitation. - 2020. - T. 24. - №. 06.
16. Sobirovich T. B. The criterion of human indicators in development and renewals in Uzbek- istan //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). - 2020. - T. 6. - №. 8. - C. 509-511.
17. Sobirovich T. B. O" zbekiston demokratik jamiyat taraqqiyoti rivojida ma" naviy yangilanish- lar strategiyasining roli //Imom Buxoriy saboqlari. - 2020. - №. 2. - C. 118-121.